(9). Robinson K.S., Bacigalupi P., Foster S., Hudson A.D., Hanson-Kahn M., Barrage R., Burt B. No more fairy tales: Stories to save our planet. Habitat Press. 2022, p. 6–20.
(10). Sanayev M. Zamonaviy o‘zbek prozasida tabiat va inson konsepsiyasi. “Fan”, 2018, p. 78–95.

Burxonova Gulmira Olimjon qizi (Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat Chet tillari instituti tadqiqotchisi; burxonovagulmira795@gmail.com)

YOSH SEMALARINING SOTSIOMADANIY KONTEKSTDA PRAGMATIK IFODALANISHI

Annotatsiya. *Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, yosh tushunchasini ifodalovchi til birliklari faqat biologik yoki xronologik belgini anglatib qolmay, balki jamiyatdagi ijtimoiy mavqe, avlodlararo munosabat, hurmat, yaqinlik, masofa, hokimiyat va baholash kabi qator pragmatik ma’nolarni ham yuzaga chiqaradi. Maqolaning maqsadi – o‘zbek va ingliz tillarida yosh semalarining sotsiomadaniy kontekstga bog‘liq holda pragmatik jihatdan qanday faollashishini aniqlash va ularni qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda lingvistik kuzatish, komponentli tahlil, kontekstual va qiyosiy-chog‘ishtirma metodlardan foydalanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida yosh semalari, asosan, murojaat shakllari, qarindoshlik terminlari va fe’l shakllari orqali ifodalanib, ular hurmat, masofa va hokimiyat munosabatlarini yuzaga chiqarsa, ingliz tilida bu ma’nolar, asosan, leksik-pragmatik vositalar, modal konstruksiyalar va bilvosita nutq aktlari orqali reallashadi. Xulosa qilib aytganda, yosh semalari ikkala tilda ham sotsiomadaniy jihatdan muhim pragmatik yuklamaga ega bo‘lib, ular milliy-madaniy va ijtimoiy me’yorlarga muvofiq tarzda namoyon bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *yosh semasi, pragmatika, sotsiomadaniy kontekst, murojaat shakli, ijtimoiy mavqe, baholash, nutq etiketi, o‘zbek tili, ingliz tili, qiyosiy tahlil.*

Бурхонова Гульмира Олимжон кизи (исследователь Наманганского государственного института иностранных языков имени Исхокхона Ибрата)

ПРАГМАТИЧЕСКАЯ РЕАЛИЗАЦИЯ СЕМ ВОЗРАСТА В СОЦИОКУЛЬТУРНОМ КОНТЕКСТЕ

Аннотация. *Актуальность исследования заключается в том, что языковые единицы, выражающие понятие возраста, не только обозначают биологический или хронологический признак, но и актуализируют ряд прагматических значений, таких как социальный статус, межпоколенческие отношения, уважение, близость, дистанция, власть и оценка. Цель статьи – определить, каким образом возрастные семы прагматически активизируются в зависимости от социокультурного контекста в узбекском и английском языках, и провести их сопоставительный анализ. В исследовании использовались методы лингвистического наблюдения, компонентного анализа, контекстуального и сопоставительно-типологического анализа. Результаты показывают, что в узбекском языке возрастные семы выражаются преимущественно через формы обращения, термины родства и глагольные формы, актуализируя отношения уважения, дистанции и власти; в английском языке эти значения реализуются в основном через лексико-прагматические средства, модальные конструкции и косвенные речевые акты. В заключение отмечается, что возрастные семы в обоих языках несут значительную социокультурную прагматическую нагрузку и проявляются в соответствии с национально-культурными и социальными нормами.*

Ключевые слова: *возрастная сема, прагматика, социокультурный контекст, форма обращения, социальный статус, оценка, речевой этикет, узбекский язык, английский язык, сопоставительный анализ.*

Burxonova Gulmira Olimjon qizi (Researcher at Is’hoqhon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages)

PRAGMATIC REALIZATION OF AGE SEMES IN THE SOCIOCULTURAL CONTEXT

Annotation. *The relevance of the study lies in the fact that linguistic units expressing the concept of age do not merely denote a biological or chronological characteristic but also activate a range of pragmatic meanings such as social status, intergenerational relations, respect, intimacy, distance, power, and evaluation. The aim of the article is to determine how age semes are pragmatically activated depending on the sociocultural context in Uzbek and English, and to conduct a comparative analysis. The research employs methods of linguistic observation, componential analysis, contextual analysis, and comparative-typological analysis. The results indicate that in Uzbek, age semes are mainly expressed through address forms, kinship terms, and verb forms, actualizing relationships of respect, distance, and power; in English, these meanings are primarily realized through lexico-pragmatic devices, modal constructions, and indirect*

speech acts. In conclusion, age semes in both languages carry a significant sociocultural pragmatic load and manifest in accordance with national-cultural and social norms.

Keywords: *age seme, pragmatics, sociocultural context, address form, social status, evaluation, speech etiquette, Uzbek language, English language, comparative analysis.*

Kirish. Til birliklarining pragmatik xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, sotsiomadaniy omillarning til birliklariga ta’sirini tadqiq etish lingvopragmatika va sotsiolingvistikaning kesishgan nuqtasida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Yosh kategoriyasi har qanday jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy belgilardan biri bo‘lib, u nafaqat shaxsning biologik yoshini, balki uning ijtimoiy mavqeyini, boshqa shaxslar bilan munosabatlar xarakterini, nutqiy xatti-harakatlarini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbek va ingliz tillarida yosh semalarining ifodalanishi o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarga ega. O‘zbek tilida yoshga oid murojaat shakllari, qarindoshlik terminlari va fe’l shakllari keng qo‘llanilib, ular sotsiomadaniy kontekstga bog‘liq holda turli pragmatik ma’nolarni yuzaga chiqaradi. Ingliz tilida esa yosh semalari, asosan, leksik vositalar, modal konstruksiyalar va bilvosita nutq aktlari orqali ifodalanadi. Ushbu farqlar ikki tilning grammatik qurilishi va jamiyatning kommunikativ me’yorlari bilan bog‘liqdir.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, yosh semalarining pragmatik xususiyatlari alohida yoki qiyosiy jihatdan maxsus o‘rganilmagan. Mavjud tadqiqotlar, asosan, murojaat shakllari yoki nutq etiketi doirasida cheklangan bo‘lib, yosh semalarining sotsiomadaniy kontekstdagi pragmatik faollashuvi tizimli ravishda tahlil qilinmagan. Shu munosabat bilan, ushbu maqolada quyidagi vazifalar belgilandi:

1) yosh semalarining o‘zbek va ingliz tillarida pragmatik ifodalanish xususiyatlarini aniqlash;

2) yosh semalarining sotsiomadaniy kontekstga bog‘liq holda faollashuv mexanizmlarini ochib berish;

3) o‘zbek va ingliz tillaridagi yosh semalarining o‘xshash va farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilish;

4) yosh semalarining pragmatik ma’nolarining milliy-madaniy shartlanganligini asoslash.

Adabiyotlar tahlili. Yosh kategoriyasining tilda ifodalanishi antropotsentrik tilshunoslik, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya va pragmalingvistika doirasida o‘rganilgan. V.fon Humboldt, E.Sapir va B. Uorf qarashlarida til birliklarining milliy-madaniy tafakkur bilan bog‘liqligi asoslangan bo‘lsa, V.I.Karasik va A.Vejbitskaya tadqiqotlarida til birliklarining ijtimoiy hamda madaniy mazmuni, konseptual va semantik xususiyatlari yoritilgan. Ushbu nazariy qarashlar yoshga oid birliklarni ham faqat biologik yosh ko‘rsatkichi sifatida emas, balki muayyan ijtimoiy-madaniy mazmunni ifodalovchi birlik sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Sotsiolingvistik tadqiqotlarda yosh nutqiy xulq-atvorning muhim ijtimoiy parametri sifatida qaralib, uning shaxsning ijtimoiy mavqeyi, avlodga mansubligi va kommunikativ munosabatlari bilan aloqadorligi qayd etiladi. Pragmalingvistik yondashuv esa yosh semasining kontekstual aktuallashuvi, baholovchi, emotsional va ijtimoiy ma’nolarni ifodalash imkoniyatini ochib beradi. Shu nuqtayi nazardan, yoshni bildiruvchi birliklarning ma’nosi nutqiy vaziyat va kommunikativ munosabat asosida konkretlashadi.

O‘zbek va ingliz tillarida yoshga oid leksik birliklarning semantik va sotsiolingvistik xususiyatlari alohida tadqiq etilgan bo‘lsa-da, yosh semasining sotsiomadaniy birliklar tarkibida pragmatik ifodalanishi va ikki til doirasida qiyosiy tahlili yetarlicha tizimli o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu jihatni badiiy matnlar asosida aniqlashga qaratiladi.

Metodlar. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

Lingvistik kuzatish metodi – o‘zbek va ingliz tillaridagi yosh semalarini ifodalovchi til birliklarining og‘zaki va yozma nutqda qo‘llanilishini kuzatish orqali material yig‘ish.

Komponentli tahlil metodi – yosh semalarining semantik tarkibini, ularning denotativ va konnotativ ma’nolarini aniqlash.

Kontekstual tahlil metodi – yoshga oid til birliklarining turli sotsiomadaniy vaziyatlardagi pragmatik ma’nolarini ochib berish.

Qiyosiy-chog‘ishtirma metod – o‘zbek va ingliz tillaridagi yosh semalarining ifodalanish xususiyatlarini taqqoslash.

Natijalar va tahlil. O‘zbek tilida yosh semalarining pragmatik ifodalanishi. O‘zbek tilida yosh semalarining pragmatik ifodalanishi, asosan, quyidagi vositalar orqali amalga oshadi: murojaat shakllari, qarindoshlik terminlari, fe’l shakllari va nutq etiketi birliklari. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi yoshga oid murojaat shakllari nafaqat adresatning yoshini, balki so‘zlovchining unga munosabatini, yaqinlik yoki masofa darajasini, hurmat yoki homiylik munosabatini ifodalaydi.

1. Murojaat shakllari orqali ifodalanishi. Quyidagi misollarni tahlil qilaylik:

(1) Otaxon, shu yo'nalishda yurish to'g'ri bo'ladimi?

Ushbu misolda "otaxon" murojaat birligi bir vaqtning o'zida bir necha pragmatik ma'noni ifodalaydi: birinchidan, adresatning yoshi katta ekanligini bildiradi (yosh semasi); ikkinchidan, so'zlovchining hurmat munosabatini ko'rsatadi (hurmat semasi); uchinchidan, adresatga nisbatan ijtimoiy masofa mavjudligini ifodalaydi (masofa semasi). –xon qo'shimchasi esa hurmatni kuchaytiruvchi pragmatik vositadir. Shu bilan birga, bu murojaat shakli so'zlovchining yosh jihatdan kichik ekanligiga ham ishora qiladi.

(2) Bolam, bu ishni ehtiyotkorlik bilan qil.

"Bolam" murojaat birligi yosh jihatdan kichik shaxsga nisbatan qo'llanilib, so'zlovchining homiyona, g'amxo'r va yaqin munosabatini ifodalaydi. Bu yerda "bolam" leksemasi haqiqiy qarindoshlikni emas, balki "o'zimning farzandimdek qarayman" degan pragmatik ma'noni yuzaga chiqaradi. Ushbu murojaat shakli o'zbek nutq etiketida keng tarqalgan bo'lib, yosh kattalarning yosh kichiklarga nisbatan mehribon munosabatini ifodalashning pragmatik vositasi hisoblanadi.

2. Qarindoshlik terminlari orqali ifodalanishi. O'zbek tilida qarindoshlik terminlari (aka, opa, uka, singil, amaki, xola va boshqalar) qarindoshlik munosabatlaridan tashqari, begona shaxslarga nisbatan ham murojaat shakli sifatida keng qo'llaniladi. Bu hodisa "kinship-like address" (qarindoshlik tipidagi murojaat) deb ataladi va u o'zbek sotsiomadaniy muhitida yosh va ijtimoiy maqom munosabatlarini tartibga soluvchi pragmatik vosita hisoblanadi.

(3) Aka, bu yerda qandaydir muammo bormi?

Ushbu misolda "aka" qarindoshlik termini begona shaxsga nisbatan qo'llanilib, so'zlovchining adresatga nisbatan hurmatini, uning yosh jihatdan kattaligini va jamiyatdagi ma'lum mavqeyini tan olishni ifodalaydi. Shu bilan birga, bu murojaat shakli ikki shaxs o'rtasidagi ijtimoiy masofani belgilaydi va norasmiy muloqotda samimiylikni saqlagan holda hurmatni ifodalash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

3. Fe'l shakllari orqali ifodalanishi. O'zbek tilida fe'lning shaxs-son qo'shimchalari yoshga oid pragmatik ma'nolarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. "Sen" va "siz" olmoshlari bilan bog'liq fe'l shakllari yosh, ijtimoiy maqom va munosabatlar xarakterini belgilaydi.

(4a) Sen keldi-ng-mi? (4b) Siz keldi-ngiz-mi?

(4a) misolida fe'lning "sen" shakli so'zlovchi va adresat o'rtasida yaqinlik, tenglik va norasmiylikni ifodalaydi. (4b) misolida esa "siz" shakli hurmat, masofa va rasmiylikni bildiradi. Yosh kategoriyasi bilan bog'liq holda, katta yoshdagi shaxsga nisbatan, odatda, "siz" shakli qo'llaniladi, bu esa hurmat semasining grammatik-pragmatik ifodasidir. Agar katta yoshdagi shaxs yosh suhbatdoshiga "sen"lab murojaat qilsa, bu homiylik yoki yaqinlik munosabatini bildiradi.

5. Ingliz tilida yosh semalarining pragmatik ifodalanishi. Ingliz tilida yosh semalarining pragmatik ifodalanishi o'zbek tilidan bir qator farqli jihatlarga ega. Ingliz tilida yoshga oid pragmatik ma'nolar asosan leksik-pragmatik vositalar, modal fe'llar, bilvosita nutq aktlari va kontekstual vositalar orqali ifodalanadi.

(5) Could you please help me with this, sir?

Ushbu misolda yoshga oid pragmatik ma'no, asosan, "sir" murojaat birligi orqali ifodalanadi. "Sir" birligi adresatning yosh jihatdan kattaligiga va uning ijtimoiy mavqeyiga ishora qiladi. Shu bilan birga, "Could you please" modal-bilvosita konstruksiyasi iltimosni muloyim shaklda ifodalash bilan birga, so'zlovchining adresatga nisbatan hurmatini ko'rsatadi. Ingliz tilida "sir" va "madam" murojaat birliklari yosh va maqomni ifodalashning asosiy pragmatik vositalari hisoblanadi.

(6) Young man, you need to be more careful.

"Young man" murojaat birligi adresatning yoshligiga ishora qiladi va so'zlovchining homiylik, nasihat qilish munosabatini ifodalaydi. Bu murojaat shakli o'zbek tilidagi "bolam" yoki "yigit" murojaatiga funktsional jihatdan yaqin bo'lsa-da, ular o'rtasida muhim farqlar mavjud. "Young man" ingliz tilida ba'zan tanbeh yoki ogohlantirish kontekstida qo'llaniladi va salbiy konnotatsiyaga ega bo'lishi mumkin, "bolam" esa o'zbek tilida faqat ijobiy konnotatsiyaga ega.

6. Modal konstruksiyalar orqali ifodalanishi. Ingliz tilida yoshga oid munosabatlarni ifodalashda modal fe'llar muhim rol o'ynaydi. Katta yoshdagi shaxsga murojaat qilganda "would", "could", "may" kabi modal fe'llar ishlatilib, ular hurmat va masofa munosabatlarini yuzaga chiqaradi.

(7) Would you like to sit down, sir?

Ushbu misolda "would you like" konstruksiyasi bilvosita taklifni ifodalab, adresatga tanlash huquqini beradi va bu orqali hurmat munosabati yuzaga chiqadi. "Sir" murojaati esa yosh va maqomga ishora qiladi. O'zbek tilida bu ma'no "marhamat qilib o'tiring" kabi nutq etiketi birligi orqali ifodalanadi.

Qiyosiy tahlil. O‘zbek va ingliz tillarida yosh semalarining pragmatik ifodalanishi quyidagi asosiy o‘xshashlik va farqlarga ega: O‘xshashliklar:

1) ikkala tilda ham yosh katta shaxslarga nisbatan hurmatni ifodalovchi maxsus murojaat shakllari mavjud (o‘zbek tilida “otaxon”, ingliz tilida “sir”);

2) yosh kichik shaxslarga nisbatan homiylik va g‘amxo‘rlik munosabati ifodalanadi (o‘zbek tilida “bolam”, ingliz tilida “young man”, “my child”);

3) yosh semalari nafaqat leksik, balki grammatik vositalar orqali ham ifodalanadi.

Farqlar: 1) o‘zbek tilida yosh semalari asosan morfologik vositalar (fe’l shaxs-son qo‘shimchalari, olmosh shakllari) orqali ifodalansa, ingliz tilida leksik-pragmatik vositalar (modal fe’llar, bilvosita konstruksiyalar) ustunlik qiladi;

2) o‘zbek tilida qarindoshlik terminlari begona shaxslarga nisbatan keng qo‘llanilsa, ingliz tilida bu hodisa cheklangan;

3) o‘zbek tilida yoshga oid murojaat shakllari ko‘proq kontekstga bog‘liq va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida xizmat qiladi, ingliz tilida esa bu vazifani, asosan, rasmiy murojaat birliklari bajaradi.

Muhokama. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, yosh semalarining pragmatik ifodalanishi har ikki tilda ham milliy-madaniy me’yorlar bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek tilida yoshga oid pragmatik ma’nolarning morfologik vositalar orqali ifodalanishi o‘zbek jamiyatining yuqori kontekstli (high-context) madaniyat ekanligi bilan izohlanadi. Bunday jamiyatlarda ijtimoiy iyerarxiya, yosh va maqom munosabatlari tilning grammatik tuzilishida aks etadi. Ingliz tili esa past kontekstli (low-context) madaniyatga mansub bo‘lib, unda ijtimoiy munosabatlar, asosan, leksik vositalar orqali ifodalanadi (Holmes, 2013).

Shuningdek, tadqiqot natijalari Brown va Levinson (1987) tomonidan ishlab chiqilgan xushmuomalalik (politeness) nazariyasi bilan ham uyg‘unlashadi. Yoshga oid murojaat shakllari asosan “salbiy xushmuomalalik” (negative politeness) strategiyasiga xizmat qiladi, ya’ni, ular suhbatdoshning shaxsiy hududiga tajovuzni yumshatish va ijtimoiy masofani saqlash vositasi hisoblanadi. O‘zbek tilidagi “siz” shakli va ingliz tilidagi “sir” murojaati aynan shu vazifani bajaradi.

Biroq, o‘zbek tilida yoshga oid murojaat shakllari nafaqat salbiy, balki “ijobiy xushmuomalalik” (positive politeness) strategiyasini ham amalga oshiradi. Masalan, “bolam” murojaati orqali so‘zlovchi adresat bilan yaqinlik va birdamlik munosabatini o‘rnatadi. Bu holat ingliz tilida kam uchraydi, chunki ingliz madaniyatida yosh asosidagi iyerarxiya o‘zbek madaniyatiga nisbatan zaifroqdir (Wardhaugh & Fuller, 2015).

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat – yosh semalarining gender semalari bilan o‘zaro bog‘liqligidir. O‘zbek tilidagi “opa” va “aka” murojaat shakllari bir vaqtning o‘zida yosh, gender va ijtimoiy maqom semalarini ifodalaydi. Ingliz tilidagi “sir” va “madam” murojaat shakllari ham shunday ko‘p funktsiyali bo‘lsa-da, ular o‘zbek tilidagi qarindoshlik terminlari kabi keng qo‘llanish doirasiga ega emas.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. Yosh semalari o‘zbek va ingliz tillarida muhim pragmatik yuklamaga ega bo‘lib, ular nafaqat biologik yoshni, balki ijtimoiy mavqe, hurmat, masofa, yaqinlik, hokimiyat va baholash kabi qator pragmatik ma’nolarni ifodalaydi.

2. O‘zbek tilida yosh semalarining pragmatik ifodalanishi, asosan, murojaat shakllari, qarindoshlik terminlari, fe’l shakllari va nutq etiketi birliklari orqali amalga oshsa, ingliz tilida bu ma’nolar leksik-pragmatik vositalar, modal konstruksiyalar va bilvosita nutq aktlari orqali reallashadi.

3. Ikkala tilda ham yosh katta shaxslarga nisbatan hurmatni ifodalovchi maxsus murojaat shakllari mavjud bo‘lib, ular “salbiy xushmuomalalik” strategiyasiga xizmat qiladi. Biroq o‘zbek tilida yoshga oid murojaat shakllari “ijobiy xushmuomalalik” strategiyasini ham amalga oshiradi.

4. Yosh semalarining pragmatik ifodalanishidagi farqlar ikki tilning grammatik qurilishi va tegishli jamiyatlarning milliy-madaniy me’yorlari bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zbek tili yuqori kontekstli, ingliz tili esa past kontekstli madaniyatga mansubligi bu farqlarni belgilovchi asosiy omillardandir.

5. Tadqiqot natijalari o‘zbek va ingliz tillarida sotsiomadaniy komponentli matnlarning chog‘ishtirma tadqiqi uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ular til o‘rgatish, tarjimashunoslik va lingvokulturologiya sohalarida qo‘llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Brown P., & Levinson S.C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press.

(2). Holmes J. (2013). An introduction to sociolinguistics (4th ed.). Routledge.

(3). Wardhaug R., & Fuller J.M. (2015). An introduction to sociolinguistics (7th ed.). Wiley-Blackwell.
(4). Yule G. (1996). Pragmatics. Oxford University Press.
(5). Austin J.L. (1962). How to do things with words. Oxford University Press.
(6). Searle J.R. (1969). Speech acts: An essay in the philosophy of language. Cambridge University Press.
(7). Safarov Sh. (2008). Pragmalingvistika. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
(8). Mahmudov N. (2013). Tilning mukammal tadqiqi yo‘lida. “O‘zbek tili va adabiyoti”, 3-son, 3–10-betlar.
()9. Mamatov A. (2015). O‘zbek tilida nutq etiketi birliklarining pragmatik xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent.
(10). Hakimov M. (2017). O‘zbek tilining pragmatik xususiyatlari. “Akademnashr”.
(11). Sayfullayeva R. (2020). O‘zbek va ingliz tillarida murojaat shakllarining qiyosiy tahlili. O‘zbekiston Milliy universiteti.
(12). Begmatov E. (2018). O‘zbek tilidagi qarindoshlik terminlarining pragmatik xususiyatlari. “Filologiya masalalari”, 2-son, 45–52-betlar.
(13). Leech G. (1983). Principles of pragmatics. Longman.
(14). Thomas J. (1995). Meaning in interaction. An introduction to pragmatics. Longman.
(15). Crystal D. (2008). A dictionary of linguistics and phonetics (6th ed.). Blackwell.
(16). Allayorov Sh. (2014). O‘zbek tilida yosh semantikasining ifodalanishi. “Til va adabiyot ta’limi”, 6, 28–32-betlar.
(17). Mirzayev I. (2019). Ingliz va o‘zbek tillarida nutq etiketining qiyosiy tahlili. Samarqand davlat universiteti.
(18). Karimov R. (2016). Sotsiolingvistika asoslari. “Fan va texnologiya”.

Panjiyeva Ro‘zixol Beknazar qizi (Termiz davlat universitetining tayanch doktoranti;
panjiyevarozixol@gmail.com; ORCID:0009-0005-6579-537X)

TARIXIY REALIYALARNI TARJIMA QILISHDA LEKSIK-SEMANTIK ALMASHTIRISHLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Maqolada tarixiy realiyalarni tarjima qilish jarayonida leksik-semantik almashtirishlarning qo‘llanish mexanizmi tahlil qilinadi. Konkretlashtirish, umumlashtirish, modlyatsiya va yaxlit o‘zgartirish usullarining tarixiy koloritni saqlashdagi imkoniyatlari aniqlanadi hamda tarjima muqobilini tanlash mezonlari asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy realiya, leksik-semantik almashtirish, konkretlashtirish, umumlashtirish, modulatsiya, tarixiy kolorit, tarjima muqobili.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИХ ЗАМЕН ПРИ ПЕРЕВОДЕ ИСТОРИЧЕСКИХ РЕАЛИЙ

Аннотация. *В статье анализируется механизм применения лексико-семантических замен при переводе исторических реалий. Определяются возможности конкретизации, генерализации, модуляции и целостного преобразования в сохранении исторического колорита, а также обосновываются критерии выбора переводческого соответствия.*

Ключевые слова: *историческая реалия, лексико-семантическая замена, конкретизация, генерализация, модуляция, исторический колорит, переводческое соответствие.*

USE OF LEXICAL-SEMANTIC SUBSTITUTIONS IN TRANSLATING HISTORICAL REALITIES

Annotation. *The article analyses the mechanism of lexical-semantic substitutions in the translation of historical realia. It identifies the potential of concretisation, generalisation, modulation and total transformation for preserving historical colouring and substantiates the criteria for selecting an appropriate translation equivalent.*

Key words: *historical realia, lexical-semantic substitution, concretisation, generalisation, modulation, historical colouring, translation equivalent.*

Kirish. Tarixiy realiyalar tarjima nazariyasining eng murakkab obyektlaridan biri sanaladi, chunki ular bir vaqtning o‘zida ikki yoqlama – milliy-madaniy va xronologik masofani o‘zida mujassam etadi. Zamonaviy realiyani tarjima qilishda tarjimon faqat boshqa madaniyat doirasidagi tushunchani izlasa, tarixiy realiyada u yo‘qolgan ijtimoiy-iqtisodiy tuzum bilan bog‘liq, bugungi kunda referenti mavjud bo‘lmagan tushunchani qayta tiklashga majbur bo‘ladi. Shu bois “beklarbegi”, “suyurg‘ol”, “tanho”, “yasovul” kabi birliklar yoki ingliz tilidagi “yeoman”, “sheriff”, “Domesday Book” singari nomlar bevosita lug‘aviy muqobil orqali berilmaydi.